

SIFATLARNING LEKSIK-SEMANTIK POLIFUNKSIONALLIGI

Sulaymonova Gulbahor Aliturayevna

Ma'lumki, ifat keng ma'nodagi predmet-narsalarning belgilarini bildiruvchi so'zlar turkumidan hisoblanadi. "Sifatlar - deyiladi darsliklarning birida, - narsaning belgi-xususiyatini turli nuqtai nazardan anglatishi mumkin. Bu belgilar bevosita insonga yoki borliqdag'i jonli va jonsiz narsalarga tegishli bo'lishi mumkin".

Shu mulohazadan va to'plangan materiallar tahlilidan kelib chiqib, sifatlarning leksik-semantik vazifalari uch turli bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) jonsiz narsa-predmetlarning belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar;
- 2) kishi va jonlilarning belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar;

3) aralash, ya'ni ham jonsiz, ham inson va jonivorlarning belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar. Binobarin, quyida sifat leksemalarning mana shunday polifunksionalligi haqida so'z yuritiladi.

Jonsiz narsa-predmetlarning belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar. Real borliqda ming-minglab jonsiz narsa-predmetlar mavjud. Tosh, suv, qog'oz, qalam, uy, gilam, soch, kalla, qum, muz, tutun, ko'prik, quyosh, dasturxon, olma, o'rik, qand, un, yuk, vagon, avtomobil, samolyot kabi narsa-predmetlarning sanab oxiriga yetish qiyin. Shunisi ham borki, bu kabi predmetlarning xilma-xil belgilari mavjud. Ular quyidagi tur sifatlardan iborat:

1. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar asliy yoxud nisbiy bo'lishi mumkin: nordon, achchiq, chuchuk, totli, sho'r, bemaza, tuzsiz;

Polizdagi **shirali** qovunlar kechki kuz sovug'ida yorilrb ketib, "meni yenglar"deb termulib turibdi (J.Sharipov, Xorazm); Mening ikki onam bor, Ikkisi ham mehribon. Biri menga sut berdi, Biri esa **shirin** non (Uyg'un); **Ko'k** choy kakra bo'lib ketibdi (So'zlashuv nutqidan); Uning (Salimboyning) keng ... peshonasi serajin cho'ziq yuzi xuddi **taxir** bir nima yegandek burishdi (S.Abduqahhor. Sanamay sakkiz dema); Bugun rosa **mazali** sho'rva ichdik (So'zlashuv nutqidan); Shovla juda **totli** bo'libdi –oshpazni maqtadilar (Oybek. Quyosh qoraymas) va boshq.

Ta'kidlash joizki, bu kabi sifatlarning ba'zilari kishilarga nisbatan ishlatalishi ham mumkin. Masalan, **shirin** bola. Bu o'rinda **shirin** sifati o'zining asl ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nosida ishlataliganligini payqash qiyin emas. Bunday tashqari, maza-ta'm bildiruvchi sifatlar otlashishi ham mumkin: Do'mbillamay qolsin bu shirinlar –ey! – deguvchi edi, harbiylarni ko'rganda bir o'rtog'im (Oydin, Sadag'ang bo'lay, komandir);

2. Is-hid ifodalovchi sifatlar. Bunday sifatlarning asosiy vazifasi narsa-predmetlarning isini-hidini ifodalashdan iborat. Mazkur guruhga kiruvchi leksemalar uncha ko'p bo'lmasa-da, ularni ikkita kichikroq guruhchaga ajratish mumkin:

1) yoqimli is-hidlarni anglatuvchi leksemalar: **xushbo'y** (Bog'ma-bog' oshib esayotgan shamol dimoqqa allaqanday **xushbo'y** islarni olib keladi, S.Ahmad. Xukm),

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

xushhid (Kecha mehmonga brogan edik, **xushbo'y** somsalarga rosa to'yib qaytdik. So'zlashuv nutqidan), **muattar** (Keldi bahor, navro'zi olam, Gul faslidir bog'lar **muattar**, Uyg'un);

2) yoqimsiz is-hidlarni anglatuvchi sifatlar: **qo'lansa** (Mingboshi yaktak barlarini olib tashlab, yelpina boshladi. Semiz badanidan **qo'lansa** ter hidi anqir edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha), **badbo'y** (Yuvinib-taranib yurishni yaxshi ko'radigan boy-savdogarlar **badbo'y** hiddan ko'ngillari ag'darilib, zo'rg'a chidab turar edilar. M.Osim.O'tror). Shu keying guruhgacha oid ayrim leksemalar kishilarga nisbatan ham ishlataladi. Masalan, **qo'lansa** so'zi "muomalasi sovuq, qo'pol, yoqimsiz" ma'nosini anglatadi: Muncha ham, **qo'lansa** odam ekansiz. Do'qini qarang -a! (B.Raxmonov. Yurak sirlari)/

Jonlilarning belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, jonlilar atamasini "tirik organizmlar, odamlar, jonivorlar" ma'nosida qo'lladik.

O'zbek tilida ham kishilarning, ham jonivorlar (hayvonot olami)ning biror xislatini, fe'l-atvorini, xarakterini ifodalash uchun xizmat qiladigan sifatlar mo'l-ko'lligi bilan boshqa turdag'i sifatlardan ajralib turadi. Ham asliy, ham nisbiy sifatlar shunday vazifalarni bajarib kelishi mumkinligini qayd etib o'tamiz.

Mazkur turga mansub sifatlarning qanday ob'ektga tegishli ekanligidan kelib chiqib, ularni ikki guruhchaga ajratish lozim ko'rildi.

1. Faqat kishilarning biror belgisi vazifasini bajaruvchi sifatlar.

Ma'lumki, "inson xulqi yoki axloqida namoyon bo'ladigan va unda odat tusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar majmui" (O'TIL) ma'nosini ifodalovchi tushuncha fe'l-atvor yoki xarakter deb ataladi. Inson xilma-xil fe'l-atvorlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

O'zbek xalq maqollarining birida shunday deyilgan: Odam borki, odamlarning naqshidur, Odam borki, hayvon undan yaxshidur. Ayni shu maqol zamirida kishilarning ikki xil fe'l-atvor, xulq, xarakterga ega ekanligini tasdiqlovchi dalil yotadi.

Ya'ni; a) **odamoxun;** Abduvahob bilan bir suhbatlashgan kishi yana suhbatlashay deydi. Ajoyib **odamoxun,** **shinavanda** yigit (Sh.Toshmatov. Erk qushi);

b) **odamovi:** Rajab bolaligidan kamgap, **odampovi** chiqdi (H.Nazir. Indamas).

Shunga ko'ra, ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'lgan kishilar haqida so'z yuritish mumkin. Ularning har biri esa o'ziga xos leksemalar –belgi bildiruvchi sifatlar vositasida ifodalanadi. Bular qyidagilardan iborat:

- Kishilarning ijobiy fe'l-atvori, xarakter-xususiyati, xulqi, xossalarining belgisi vazifasini bajaruvchi asliy va nisbiy sifatlar. Misollar keltiramiz: dilkash,yoqimtoy, mo'min, sodiq, muloyim, chapdast, odobli, ozoda, xushmuomala, rostgo 'y, aqli, mehribon; Bir o'zing dono bo'lguncha, Ko'p bilan ahmoq bo'1 (Maqol); **Xushxulq, xushaxloq... to'g'ri so'z** Mahammadkarim, chinakam botir, **shijoatli**, dushmanlarga nisbatan rahmsiz, shavqatsiz kishi edi (M.O'rinxo'jayev. Unutilmas kynlar); Doimo kulimsirab gapiradigan **xushmuomala** komissar hozir dag'al va shiddatli ko'rindi (I.Rahim. Chin muhabbat); Mehnatda dilovar. Zar hosil olurda kimyogar (Habibiy); Har

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kim o‘z sevgani bilan **dilshod** (G‘.G‘ulom); Yo‘lchiboy... barvastaligiga qaramay, **abjirgina** yigit (A.Qahhor. Sarob); Ergash **yaxshi** yigit, rubob chaladi, ashula aytadi (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi). Ayni shunday sifatlar kishilarda ijobiy assotsiyatsilar tug‘dirganligi va tug‘dirajakligi e’tiborga olinib, ular odamlarning ismlariga ko‘chirilgan – antroponomilar tarkibidan joy okgan, yana aniqroq qilib aytqdigan bo‘lsak, ot turkumining “mulki” ga aylantirilgan.

Mehribon, Dilshod, Dikdor, Botir, Dono, Mo‘min, Sodiq, Dilovar, Nozik (oy), O‘ktam, Mohir(a), Ozoda kabi yuzlab ismlarning qo‘llanishda ekanligi ijobiy belgilarni anglatuvchi sifatlar ham muhim leksik-semantik vazifalardan birini bajarib kelayotganligidan dalolat beradi.

2) Kishilarning salbiy fe’l-atvori, xarakter-xususiyati, xossalari, xulqi kabilarning belgisi vazifalarini bajaruvchi sifatlar. Misollarga murojaat qilamiz: darg‘azab, g‘azabnok, tajang, alamzada, nokas, g‘alcha, zudbin, g‘alamis, qabih, olchok, to‘ng; U.(Madaminxo‘ja) bir ko‘ngli borib **muttaham** qozining tumshug‘iga tushirgisi yo **iflos** basharasiga tupurgisi keldi (M.Ismoilov. Farg‘ona tong otguncha); Bozor boshidagi madrasaning mudarrisi... juda **munofiq**, borib turgan **ig‘vogar** odam (M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari).

Kishilarning salbiy xulq-atvori, xarakteri va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar haqida gap ketar ekan, bevosita shoir Muqimiy ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Chunki u kishilardagi salbiy illatlarni fosh qiluvchi satirk shoir sifatida qalam tebratgan edi. Binobarin, uning asarlarida yuzlab salbiy ma’noli sifatlardan foydalanilgan edi. Ulardan ayrim namunalar keltiramiz: Is chiqargan yerda hozir misli shayton **hamtaboq**, Qancha so‘rsang shuncha **shilqim**; turfa **sulloh** bachchag‘ar (Muqimiy); Birlari **mo‘ltinamo**, **xiylagar**, Birlaridur **kunda-pixu** gavdaxar; Yig‘Idi har tarafdin zo‘r zan, **xunrez** o‘g‘rilar; mabodo topmagay deb qo‘rqaman **johil** yomon Laxtin; Ko‘rmadim olamda sandek turfa **nodon** bachchag‘ar; Uchrasa har yerdakim makruhu **murdor** avliyo; Mingboshisi **so‘finamo**, Tasbihu bo‘ynida pido, Cho‘qub qochar zog‘i a’lo, Bir **dog‘uli ayyor** ekan va boshq.

Hayvonlarning biror belgisi vazifasini o‘tovchi sifatlar. O‘zbek xalqi azaldan chorvador bo‘lganligi uchun ham ona tilimizda hayvonlarning biror xususiyat-xossasi, fe’l-atvori kabi holatlarni ifodalovchi so‘zlardan ham foydalanib kelgan. Mana shunday leksemalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Asov: Cho‘lga o‘rgangan **asov** qo‘y og‘ilni buzib yuborguday tipirchilaydi (S.Axmad. Qadrdon dalalar). To‘g‘ri, **asov** so‘zi jonsiz predmetlarga nisbatan ham ishlatalidi. Biroq bunday holatda u ko‘chma ma‘no kasb etgan bo‘ladi: asov daryo.

Tepong‘ich // tepag‘on: Tepong‘ich otning sirtiga qarama (Maqol).

Uchqur: Vaqt bamisolai bir **uchqur** qush ekan (J.Abdullaxonov. Yo‘l).

Qopag‘on // qopang‘ich: Qopang‘ich itingizni bog‘lab qo‘ysangiz bo‘lmaydimi ?

Hurqovuch: Men... domlaning nima niyatda ekanligini tushunmasdan, **hurqovuch** kiyikdek oyog‘imni bir yerga g‘uj qilib, qochishga hozirlangan... edim, - dedi Shum bola (G‘.G‘ulom. Shum bola).



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ikkala jonli ob'ektning belgisi vazifasini bajaruvchi sifatlar. Ikkala ob'ekt deuilgandaham kishilar, hamjonlilar, ya'ni hayvonot olami tushuniladi. Ona tiltmizda shunday asliy va nisbiy sifatlar borki, ular kishilar hamda hayvonlarning xususiyalari, xossalari ni ifodalab keladi. Fikrimizning dalili uchun quyidagi qiyosiy misollarni jadval tarzida keltiramiz.

2-jadval

Kishilarga nisbatan	Hayvonlarga nisbatan
Musulmonqul ... qo'y kabi yuvosh Toshkent hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belgiladi (A.Qodiriy. O'tgan kunlar).	Yuvosh otning tepkisi qattiq (Maqol). Yuvosh tuyu yumushga yaxshi (Maqol).
Yaxshi yigit bilan yaxshi ot -ko'pniki (Maqol).	Oting yaxshisi uloqda bilinadi (Maqol).
Yaxshi kishi – tegchil, Yomon kishi - kekchil	Yaxshi ot oyog'idan ozar; Yaxshi otga o'g'irlilik ko'p (Maqollar).
Yomon bola ko'zidan, bilinadi so'zidan (Maqol).	Yomon o'rdak oldin uchar (Maqol).
Yomon odam bo'lsangiz meni har nima qilish qo'lingizdan kelar edi (A.Qahhor. Qo'shchinor).	Yomon buqa o'z boshiga o't yer, Yomon buzoq yopig'in yer (Maqol).

Jonlilar hamda jonsiz narsa-predmetlar belgisi vazifasini o'tovchi sifatlar. Shu guruhga mansub sifatlarning shakl-ko'rinish, shamoyil bildiruvchi turi uch xil vazifani bajarar ekan.

1. Jonsiz narsa-predmetlarning shakl- shamoyillarini ifodalaydi: O'roz qayerdandir **katta** tarvuz keltirib o'rta ga qo'ydi (Oybek. Qutlug' qon); So'nggi masofani poyezd shoshilmay o'tdi. **Kichik-kichik** bekatlarda ham uning qo'liga qizil fonar ko'ndalang bo'laverdi (I.Rahim. Chin muhabbat); **Kalta** ip bog 'lovga yetmas (Maqol); **Novcha** teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi (S.Axmad.Qadrdon dalalar); Qachon ko'rma, bir poy xo'kiz, **bukri** omoch, Bag'ri shamol ko'rmay, qishda qoladi och (G'.G'ulom);

2. Kishilarning shakl- shamoyillarini bildiradi: **pakana** odam, **mitti** polvon, **novcha** yigit; Yo'q, bunday bo 'lishi mumkin emas. Anavi **kichik** jangchicha ham yo'qmanmi (Shuhrat. Shinelli yillar); Yefim tog'a... bolg'ani qo'liga olib, o'qi bukri odamday akashak bo'lib ketgan arava oldiga bordi (H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar) va boshq.

3. . Hayvonlarning shakl- shamoyillarini anglatadi: katta qo'y, kichkina uloq, ulkan ayiq, bahaybat fil, mitti qo'ng'iz, jajji qo'zichoq va boshq.

2.2 Monosemantik va polisemantik sifat leksemalarning polifunksionalligi



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Boshqa turkumdagи leksemalar singari sifatlar ham, birinchidan, monosemantik, ikkinchidan, polisemantik xarakteradir. Tabiiyki, bu xildagi leksemalar ham muayyan vazifalarni bajaradi. Quyida shunday xususiyatga ega bo‘lgan sifatlar haqida so‘z boradi.

I. Monosemantik sifatlar. O‘zbek tilida shunday sifatlar borki, ular faqat bitta ma’noni ifodalab keladi. To‘g‘ri, bunday sifatlar unchalik ko ‘p emas. Biroq monosemantik sifatlarning mavjudligi lisoniy faktor ekan, yani faqat bir vazifani – monosemantik ma’noni ahglatar ekan, bu haqda ham so‘z yuritishning lozimligi o‘zo‘zidan ayon bo‘lib turibdi.

Dastlab asliy hamda nisbiy sifatlarning ayrimlari monosemantik xarakterda ekanligini ta’kidlash lozim.

To‘plangan materiallardan asliy sifatlarning faqat rang-tus bildiruvchi turigina monosemantik xususiyatga ega bo‘lib, bittagina ma’noni ifodalab keladi. Bular quyidagilardan iborat:

Binafsha: “binafsha deb atalmisho ‘simlikning guli rangidagi”; To ‘rt burchagiga ko‘k, **binafsha**, shaftoli rang ipaklar bilan gular tikilgan (Oybek. Quyosh qoraymas).

Qirmiz; “qizil rangdagi; qizil, ol” (Oq yuziga **qirmiz** qonlar quyildi, har tarafga qora sochi yoyildi. “Rustam” dostoni).

Pushti: “shaftoli guli rangidagi, och qizil” Kulmanglar, qizlar, buning gapiga, - dedi jimgina o‘tirib, ko‘k bahmalga **pushti** ipakdan atir gul tikayotgan juvon. I.Rahim. Chin muhabbat).

Ol : “qizil, qirmizi” (Namoyishchilar **ol** bayroqlar-la ko‘chaga chiqishdi);

II. Polisemantik sifatlar. Sh.Rahmatullayev shunday fikrni olg‘a surgan : “Har bir leksema yaratilishiga ko‘ra, monosemantik bo‘ladi; biror predmet, belgi, munosabat (ta’kidlar bizniki – S.G.) ning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom bo‘lib xizmat qiladi, shu yo‘l bilan o‘z ma’nosini o‘zgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada leksema ma’nosida turli-tuman siljishlar yuz beradi, **monosemantik leksema polisemantik leksema** (ta’kid bizniki – S.G.) ga aylanadi”. Bu fikr-mulohazaning qanchalik to‘g‘ri va haqqoni yicanligi sifatlarning polisemantik vazifasini bajarishida yaqqol ko‘rinadi. Chunki sifat turkumiga oid yuzlab so‘zlar ona tilimizda xilma-zil funksiyalarni “ado” etib kelmoqda. Ularni quyidagicha guruhshtirish lozim deb topildi.

1. Asliy sifatlarning ma’noviy polifunksionalligi. O‘zbek tilida asliy deb hisoblanmish yuzlab so‘zlar mavjudki, ularning har biri, yuqoridaqilardan farqli o‘laroq, ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Bunday sifatlarning asosiy funksiyasi xilma-xil ma’no;arni ifodalashdan iborat. Masalan, **yaxshi** sifatini olib ko‘raylik. Mazkur leksemaning asl ma’nosi: “Ijobiy sifatga ega bo‘lgan, biror talabga to‘la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma’qul bo‘ladigan” (O‘TIL).

Masalan: **Yaxshi** kishi –tegchil, Yomon kishi –kekchil; **Yaxshi** uydan yaxshi tutun chiqar; **Yaxshi** chechakka bolari qo‘nar va boshq.

Shu bilan birga, **yaxshi** leksemasi yana qator ma’noviy nozikliklarni ifoda qilishi bilan o‘zining ko‘p vazifali ekanligini ko‘rsata oladi. Shunday ma’nolardan biri “biror narsani yoki kishini yoqtirish, ma’qul ko‘rish” demakdir. Bunday ma’no **yaxshi** so‘zi “

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ko‘rish” leksemasi bilan birikkan holatda reallashdi. Hozirgi o ‘zbek tilida: yaxshi ovqat –mazali ovqat; yaxshi ovqat – tuzi me’yordagi ovqat; yaxshi gul – chiroyli gul; yaxshi gul –hidi o ‘tkir gul; yaxshi qiz – aqli qiz; yaxshi qiz – bilimli qiz va hokazo holatkarda **yaxshi** so‘zi turli xil ma’nolarni ifodalaydi: yaxshi qovun –shirin qovun; yaxshi ot – yuvosh ot; yaxshi ot – tez chopadigan ot; yaxshi mashina – kam benzin sarf qiladigan mashina yoki chidamli mashina.... .

Xullas, yaxshi sifati juda ko ‘p belgi bildiruvchi so ‘zlar vazifasini bajarib kela oladi. Bundan tashqari, harakatning belgisini ham bildirib kelishi aniqdir: **Yaxshi gapirdi**. Bu gap tarkibida ham u turli ma’nolarni ifodalashi mumkin: aniq, lo‘nda, ixcham, mazmunli kabilar.

Yuqoridagi fikrimizning dalili uchun asliy sifatga mansub bo‘lmish **qora** leksemasi haqida ham so‘z yuritamiz. Mazkur lug‘aviy birlik “rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to‘q; qozon kuya, ko‘mir tusidagi” ma’nosini bildiradi. “O‘zbek tilning izohli lug‘ati” (II tom)da qayd etilishicha, **qora** so‘zi o‘zbek tilida yigirma xil ma’noda qo‘llanar ekan. Shundan u olti xil ma’nosida substantivatsiyalashgan, ya’ni ot turkumiga mansub ekanligi ta’kidlangan. Qolgan ma’nolarida narsa-predmetlarning belgisini bildirar ekan. Ayrim misollar keltiramiz:

- 1) yuqorida ko ‘rsatilgan asl ma’nosida: Oq it, **qora** it- baribir it (Maqol); Nazira Uzun sochlarini boshiga atirgul qilib turmaklagan bir o ‘rim jingalak soch yuzining chap tomonidan buralib tushib turar, tim qora ko ‘zları o ‘ziga oro bergenidan uyalgandek hijolat bilan boqardi (Bekajon, 22.07.2004,24);
- 2) “ juda ham yomon, razil, kabih, yovuz” ma’nosida: Qora ko‘ngil – yara ko‘ngil (Maqol); Ana shunda bu **qora** odat qiz baxtiga urgan edi (H.Olimjon).

Shirin leksemasini olib ko‘raylik. U aslida “shaker, asal, qiyom kabilarni ta’miga to‘g‘ri keladigan, shirasi o‘tkir, shirali” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: Shirin mevalarga o‘rgangan og‘izlariga bu yerning nordon ne’matlari yoqmadi (Oybek. Quyosh qoraymas);

Shirin so‘zi “ta’mi yoqimli, totli, mazali, lazzatli” ma’nolarini ifodalash vazifasini ham bajaradi. Masalan: Mtning ikki onam bor, Ikkisi ham mehribon, Biri menga sut beradi, Biri esa **shirin** non (Uyg‘un).

Ma’lumki, **achchiq shirin** leksemasining antonimi hisoblanadi. Ularning polisemiyalik vazifalariga e’tibor berib qiyoslab ko‘rliganda, quyidagi holatni payqash qiyin emas: achchiq leksemasi 6 xil ma’nosida sifat vazifasida, uchta ma’nosida esa ot vazifasida keladi. **Shirin** leksemasi esa ko‘chma ma’nolarida sifatlik xususiyatini saqlab qoladi:

- 1) “kishi xuzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush keladigan”- bu shirin leksemasining ko‘chma ma’nolaridan bittasi: Bir og‘iz **shirin** so‘z nondek aziz (G ‘G ‘ulom); Ulfatlar **shirin** suhabat qurishdi;
- 2) “fe’li-odobi, hulqi, yurish-turishi yoqimli, yoqimtoy” - bu shirin leksemasining ikkinchi ko‘chma ma’nosidir: Bir-biridan shirin bolalar.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

3) “juda yaxshi, juda soz; ajoyib, hayron qolarli” – bu **shirin** leksemasining yana bitta ko‘chma ma’nolaridandir: Azim polvon **shirin** to‘y qilib berdi; Ikkimiz bosh qo‘shib uylantirsak... Bu juda **shirin** ish bo‘lar edi (Oybek. Qutlug‘ qon).

Aziz asliy sifatining asli ma’nosи “izzat-hurmatga sazovor, qadrli, qimmatli, muhtaram” (O‘TIL) demakdir. Masalan: **Aziz** ayollar, vaqtingiz ziq bo‘lishidan, ishlaringiz har qancha tig‘iz bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zingizga qarang... (Bekajon, 22.07.04); Farzand **aziz**, odobi undan aziz (Maqol). Shu bilan birga, **aziz** leksemasi yana bir qancha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilganki, buni quyida keltirilgan misollar yaqqol tasdiqlashi mumkin;

1) **Aziz** vatanimiz doimo tinch bo‘lsin!; **Aziz** yurtimizni avaylab asraylik!

2) Ko‘p joylarda **aziz** suv behudaga sarflanmoqda.

3) Kasalni davolash uchun mqhribon, **aziz** shifokorlar hamisha yordamga keladi.

2. Nisbiy sifatlarning ma’noviy polifunksionalligi. O‘zbek tilida asliy sifatlarga qaraganda, nisbiy sifatlar juda ko‘pligini ta’kidlab o‘tish lozim. Yuqida qayd etilgandek, bunday sifatkarning yasalishida qariyib 50ta affiks hamda affiksoidlarning ishtiroy etishi shu fikrni tasdiqlaydi. Niabiy sifatlarning ma’noviy ko ‘p vazifalilagini quyidagicha belgilash mumkin: “Nisbiy sifatda yasash asosidan anglashilgan narsaga xoslanganlik, chog‘ishtirish, o‘xshatish, o‘rin yoki paytga nisbatlash kabi ma’nolar ifodalanadi, sifat yasovchi affiks go‘yo ikki narsa orasidagi munosabatlarning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi”. Shu fikr asosida nisbiy sifatlarning leksik-semantic polifunksionalligi haqida so‘z yuritish mumkin.

Yasovchi elementlar yordamida hosil qilingan sifatlar ma’noviy jihatdan predmet – narsaga nisbatan berish yo‘li bilan belgini ifodalash vazifasini o‘taydi. Bunday vazifani reallikka chiqarishda qator sifat yasovchi affikslar ishtiroy etadi. Ularning barchasi xususida to‘xtab o‘tish, ishimizning hajmi taqozo etmaganligi tufayli, faqat ayrimlari xususida so‘z yuritish lozim ko‘rildi. Bular quyidagilardir:

a) -li affiksli nisbiy sifatlar. Mazkur sifat yasovchi affiks juda mahsuldor, serunum bo‘lib, xilma-xil ma’nolarni anglatish uchun xizmat qiladi. Bu masala qator ishlarda o‘zining ancha to‘liq ifodasini topgan (Adabiyotlar ro‘yxatiga qaralsin). Nisbat berish yo‘li bilan belgini anglatish funksiyasi **-li** affiksi bilan yasalgan quyidaci ma’noli leksemalarning belgisini ifodalaganda namoyon bo‘ladi:

- ot turkumiga oid shaxs nomlarining belgisini anglatgan taqdirda:

Kayfiyatim ko ‘tarilsa, mendan **baxtli** inson bo‘lmaydi; Ana shunday **mehrli** muxlisingizni topdingizmi?; Uy bekalari **ishli** ayollarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega...; Bundan bir necha yillar avval ularning Norqul... **ismlli** ukalari bo‘lgan; **Odobli**, kamgap bu yigit bizga yoqib qoldi; Zulfiyaxon ham **kirishimli** juvon ekan...; Shunday go‘zal, **aqlii**, ko‘nglimdagи yorni berdi; Hatto uy kiyimida ham juda **latofatli** ko‘rinadigan Nodira bashang kiyimlar bilan ... naq malikaning o‘zi bo‘lgan edi va boshq.

-ot turkumiga oid narsa-predmetlar nomlarining belgisini bildirganda: Bir necha yangi qo‘shiqlar, **musiqali** kliplar ustida ishlayapmiz; Qayerga bormayin, iloji boricha **jonli** ovozda, **jonli** kuyda muxlislarimizga qo‘shiqlarimni taqdim etayapman; Asal va

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

murabbo –eng **foyDALI** shirinlikdir; Ulardan yozning **chillali** kunida tahririyatimizni qidirib kelishga nima sabab ekanligini surishtirdik; Buning **chiroyli** bir sababi bor...; Zum o‘tmay hovlini dardli bir ovoz tutdi; Hayolini o‘g‘irlagan turli-tuman achchiq va **alamli** o‘ylardan qutulolmadi; ... **mehrli-oqibatli** oilalar ko‘paysa deymiz va boshq.

b) -iy (viy) affiksli nisbiy sifatlar ham nisbat berish yo‘li bilan belgini ifodalash vazifasini bajaradi: Ular bor-yo‘g‘I bir yil baxtli **oilaviy** hayot kechirishdi; Endi ishondim, barcha dalillar to‘g‘ri chiqyapti, - javob berdi rasmiy ohangda ota; Ma’lum bo‘lishicha, boshqalar uchun o‘lim keltiradigan harorat bu qizcha uchun **odatiy** holat ekan;

